

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



"UMUMTEXNIKA FANLARI" KAFEDRASI

MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI
fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha



O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

Qarshi-2022 yil

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma fanning ishchi o'q dasturi, ishchi o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi. Amaliy mashg'ulotlar 60710600–Elektr energetikasi (elektr ta'minoti), 60710500–Energetik (issiqik energetikasi), 60711000–Muqobil energiya manbalari (quyosh va sharoit energeterikasi), 60710700 –Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiya (elektr mashinasozlik), 60710900–Energiya tejamkorligi va energoaudit, 60711400 Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo neft-kimyo va oziq-ovqat sanoati), 60720700–Texnologik mashinalar va jihozlari (neft-gaz sanoati mashina va jihozlari), 60711200–Elektronika va asbobsozlari (elektronika sanoatida), 60721800–Neft va gaz ishi (Neft va neft-gaz konklarini ishlash va ulardan foydalanish), ta'lif yo'nalishi talabalari uchun tayyorlandi. O'quv-uslubiy qo'llanma boshqa texnika ta'lif yo'nalishi talabalari ha foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar:

- Radjabov M.R.** - "Umumtexnika fanlari" kafedrasi dotsenti v.b.
Boymuratov F.X. - "Umumtexnika fanlari" kafedrasi assistenti
Mustapaqulov S.U. - "Umumtexnika fanlari" kafedrasi assistenti
Hamroyeva L. - "Umumtexnika fanlari" kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

- Kamolov I.** – QDU "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedra mudiri, professor.
Fayzullaev X.A. – "Umumtexnika fanlari" kafedrasi dotsenti.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma "Umumtexnika fanlari" kafedrasining 2022-yil 12/11-dagi 5-sonli yig'ilishida hamda "Muhandislik texnikasi" ta'siqeti Uslubiy Komissiyasining 2022-yil 22/11 da 4 sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan:

Institut Uslubiy Kengashining 2022-yil 16/11-dagi 14 sonli yig'ilis qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsuya etilgan.



KIRISH

"Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanining mazmuni, predmeti va metodi, uning mohiyati, maqsadi va vazifalari, fazodagi turli o'lchamdagisi obyektlarini va ulardagisi bog'liqliklarni, tekislikdagi ikki o'lchamli chizmalar ko'rinishidagi fazoviy xususiyatlarni tasavvur qilish, fazoviy konstruktiv-geometrik tuzilishlarini mantiqiy tahlil qilish va umumlashtirish bilan bog'liq bo'lgan fikrlash qobiliyatlarini oshirish va rivojlantirish bo'yicha yo'nalish profiliga mos, ta'lif standartlarida talab qilingan bilimlar darajasida ta'minlashdir. Talabalarni hozirgi zamon grafik dasturlar vositalari bilan tanishirish, ulardan mutaxassislik yo'nalishiga mos keladigan grafik primitivlarni bajarish, ularni tahlil qilib maqbul variantlarini hosil qilish, bajarilgan grafik axborotlarni xotirada saqlash va qog'ozga chop etib olish kabi bilim va ko'nikmalarni puxta egallashlarini ta'lif standartlarida talab qilingan darajada o'rgatishdan iborat.

"Muhandislik va kompyuter grafikasi" umummuhandislik fanlari qatoriga kirib, asosan uch bo'limga bo'lib o'rganiladi: chizma geometriya, muhandislik va kompyuter grafikasi.

Chizma geometriya fanida uch o'lchamli geometrik figuralar (nuqta, to'g'ri chiziq, tekislik, sirtlar) va buyumlarning tekislikdagi asosan ikki o'lchamli proeksiyalarini yasashning usullari va qoidalari o'rganiladi. Ya'ni chizma geometriya fani uch o'lchamli fazo bilan ikki o'lchamli tekislik orasida ko'priq vositasini o'tab, uning asosiy maqsadi quyidagilarni o'rgatishdan iborat:

1. Fazodagi uch o'lchamli geometrik figura va buyumlarning tekislikdagi ikki o'lchamli tasvirlarini - proeksiyalarini, ya'ni ularning chizmalarini tuzish usullarini, qoidalarni va tartibini o'rgatadi.

2. Geometrik figura va buyumlarning tekislikdagi ikki o'lchamli tasvirlariga binoan, ularning xususiyatlarini uch o'lchamli fazoda fikran tasavvur qilish, ya'ni ularning chizmalarini o'qish usullarini, qoidalarni va tartibini o'rgatadi.

3. Geometrik figura va buyumlarning tekislikdagi tasvirlariga binoan, ularning o'zaro kesishishiga va joylashishiga oid pozitsion va metrik masalalarni grafik usullarda yechishni o'rgatadi.